O'ZBEK MUMTOZ SHOIRALARI IJODIDA ISHQ MAVZUI TALQINLARI

Nabiyeva Nodira Saidovna
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Boburning chevarasi hassos shoira Zebunnisobegim, Jahon Otin Uvaysiy, Mahzuna, Nodirabegim, Anbar Otin, Dilshodi Barno ishq mavzusidagi tanlab olingan ayrim she'rlarining badiiyati tahlil va talqin qilingan. Shuningdek, shoiraning poetik mahorati -badiiy-tasviriy vositalardan foydalanishdagi o'ziga xosliklar, ramz, tashbeh, ko'chimlardan o'rinli foydalanib, betakror jumlalar tuza olishdaki mahorati hamda ruhiy kayfiyat va holatni badiiy aks ettirishda peyzaj tasviridan ustomonlik bilan foydalana olishi kabi masalalarga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: ko'ngli dog' o'lgan", bag'ri "tig'i bedod, ramz, o'xshatish, talmeh, ko'chim,erksizligi, vafo va sadoqat va b.

Интерпретации темы любви в произведениях классических узбекских поэтов

Аннотация: В данной статье анализируется и интерпретируется художественное качество некоторых избранных стихотворений на тему любви внучки Бабура, чуткой поэтессы Зебуннисобегим, Яхон Атин Увайсий, Махзуны, Нодирабегим, Анбар Атин, Дильшоди Барно. Также уделяется внимание вопросам поэтического мастерства поэтессы – особенностям использования художественно-образных средств, её умению уместно использовать символы, аллюзии, метафоры, а также умению искусно использовать пейзажные образы для художественного отражения

душевного настроения и состояния.

Ключевые слова: «пятно сердца мертво», «терн сердца сломан», «символ», «подобие», «талме», «кухим», «свобода», «верность и преданность» и др.

Interpretations of the theme of love in the works of classical Uzbek poets

Abstract: This article analyzes and interprets the artistic quality of some selected poems on the theme of love by Babur's granddaughter, the sensitive poetess Zebunnisobegim, Jahon Atin Uvaysiy, Mahzuna, Nodirabegim, Anbar Atin, Dilshodi Barno. Attention is also paid to the issues of the poetess' poetic skill - the peculiarities in the use of artistic and figurative means, her ability to appropriately use symbols, allusions, metaphors, and the ability to skillfully use landscape images to artistically reflect the mental mood and state.

Keywords: "the stain of the heart is dead", "the thorn of the heart is broken", "the symbol", "the likeness", "the talmeh", "the kuchim", "the freedom", "loyalty and devotion", etc.

O‘zbek mumtoz shoiralari ijodida ishq mavzusi avj pardalarda kuylanganligi bilan ular adabiyot tarixida katta o‘rinni egallaydi.

Milliy she’riyatimiz takomilida mumtoz shoiralarning o‘rni benihoya kattadir. Boburning chevarasi hassos shoira Zebunnisobegim, Jahon Otin Uvaysiy, Mahzuna, Nodirabegim, Anbar Otin, Dilshodi Barno kabi shoiralar shular jumlasidandir. “O‘tmish sharqida Robiya va Mahatsiydan boshlab, Zebunniso va Nodiragacha, Uvaysiy va Mahzunadan Dilshod va Anbar Otingacha qanchadan-qancha zukko shoiralar yashab ijod etganlar. Ularning yurak nidolarida ming

yillarning shodlik va nolalari, kurash va orzulari bor"[1]. Bugungi o'quvchi o'zbek adabiyoti tarixidagi ayollar she'riyati vakilalarini ko'pchiligni yaxshi biladi.

O'zbek she'riyatining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan shoiralar sifatida Uvaysiy va Nodirabegimning xizmatlarini alohida e'tirof etish joiz.

Adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlarida Uvaysiy hayoti va ijodi bir qadar o'rganilgan. T. Jalolovning "O'zbek shoiralari", A,Qayumovning "Qo'qon adabiy muhiti", F.Namangoniyning "Majmuayi shoiron" tazkirasi, I.Adizovaning "Uvaysiy she'riyatida poetik tafakkurning yangilanishi" nomli tadqiqotlarida shoira ijodi turli rakurslarda tahlilga tortilgan. Uvaysiy tom ma'noda, "mohir g'azalnavis –lirik shoiradir. U ruhiy kechinmalar, his-hayajonlar, nozik kayfiyatlarni darhol his etuvchi –tuyg'un shoiradir"[2]. Darhaqiqat, shoira she'rlarini tahlilga tortar ekanmiz, ularda davr muammolari, o'sha zamon ayollarining dard-iztiroblarini dardli ohanglarini his etamiz. "Zamona kulfatidan ko'ngli dog' o'lgan", bag'ri "tig'i bedod" raqiblardan jarohat olgan hassos qalb sohibasining she'riyati qanchalik dardli bo'lmasin, unda ishq mavzusi yetakchilik qiladi. Shoiraning g'azallarida insoniy muhabbat ulug'lanadi. Xotin-qizlarga sevish, uni tan olish, izhori dil qilish kata gunoh hisoblangan, bunga yo'l berilmagan zamonda ayol shoiraning ishqini oshkora ayta olishi, kuylashi katta jasorat bo'lgan:

Maddi ohim ko'kdadur, sorig' yuzimga ashik ol,
Ul qadi ra'no, yuzi gulnora oshiq bo'lmisham.[3]

O'z davrining oqila ayoli bo'lgan Uvaysiy she'riyatining bosh mavzusi ishq. Uning oshiqona ruhdagi g'azallarini kuzatganimizda, unda lirik qahramon oshiq

[1] Қодирова М. Шоира Муаззамхон. – Тошкент. "ФАН", 1992. 3-бет. (72 б)

[2] Жалолов Т. Ўзбек шоиралари. – Тошкент. Ғ.Ғ.номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1970. 54-бет.

[3] Уч шоира. Увайсий, Маҳзуна ва Нодира. Шеърлар. – Тошкент. ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти. 1958. 29-бет.

qiyofasida bo'y ko'rsatadi. Hayotda qanchalik qiyinchiliklarga uchrasa ham o'z tanlagan yo'lidan sira chekinmaydi, olg'a qarab harakat qilaveradi:

Muhtasibi ishq aylabdur jahon ovvorasi,
Ul sababdur ro'zg'orim birla baxtim qorasi,

G'azalni o'qir ekanmiz unda mardona qalbli chin oshiq siymosini ko'ramiz. Bu chin oshiq qat'iyatli, tikso'z. misol uchun, Zebunnisoning lirik qahramoni yo'lini hayo to'sgan bo'lsa, Uvaysiyda o'zgacha. Uvaysiy g'azallarida bulbul obrazi shijoatli, tug'yonli, faol obraz darajasiga ko'tarilgan:

Ki bulbul nola, afg'on aylamakni mendin o'rgandi,
Vujudin sham'i so'zon aylamakni mendin o'rgandi.

G'azal mazmunida lirik qahramon o'zining ahvoli-ruhiyasini bayon etish emas, balki o'quvchilarga hayot mashaqqatlarini qanday yengish, ularga qarshi kurashish yo'llarini ko'rsatish, qiyinchiliklarga qarshi tura olish kabi masalalar turadi. Albatta, uing g'azallarida tarannum etilgan ishq mavzusi o'zbek ayoliga xos tarzda tasvirlangan. Layliga Majnun ko'zi bilan qarash lozim. Haqiqiy oshiq majnun bo'ladi. Uning ko'ziga butun olam Layli bo'lib ko'rinaveradi. Bu esa oshiqlik holatining kuchli darajasini anglatadi. Bu kabi oshiqlikni barcha oshiqlar havas qiladilar.

Mohlaroyim Nodira ijodida ham ishq baland nuqtalarda tarannum etilgan. Nodirabegimning adabiy merosi 109 ta g'azalni o'z ichiga oladi: "Nodiraning hozir mavjud devoni ham xattotlar tomonidan zeb-u ziynat bilan shoh saroyiga atab tuzilgan muhtasham devon bo'lmay, turli kotiblar tomonidan ko'chirilgan to'plamdir"[4]. Nodirabegimning g'azallarida xotin-qizlarning haq-huquqsizligi, his-tuyg'ularining cheklanganligi, erksizligi, vafo va sadoqat masalalari kuylangan.

[4] Жалолов Т. Ўзбек шоиралари. – Тошкент. Ғ.Ғ.номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1970. 86-бет. (338 б.

Nodirabegim erkaklarning bevafoligi bois ishq xor bo'ladi deya vafo va sadoqatni avj nuqtalarda kuyladi, vafo va sevgini odamning eng yuksak xislati deb bildi.

Muhabbat - hayot bezagi. U inson qalbini cheksiz go'alliklar, ezguliklar bilan oshno qiladi. Muhabbatli qalb kuchli, cheksiz fazolarga qanot qoqib parvoz qiladi, buyuk orzular og'ushida yashaydi, o'zini kuch-qudratli his etadi.

Kuyib, ey Nodira, olam eliga
Muhabbat shevasini oshkor et.[5]

Muhabbat Ollohning in'omi. U hammaga birdek nasib bo'laveradigan tuyg'u emas. Chin muhabbat kam sonli insonlarga nasib qiladi. Nodiraning bu borada omadi kelgan. U Amir Umarxonni sevgan, xon ham o'z navbatida uni kuchli darajada sevgan. Shu sababli, "Nodira o'z ijodining ibtidosidan intihosigacha o'zini kuylaydi: U kulib boqqan baxtga taronalar yozdi, ma'shuqa bo'lib oshig'ini, layli bo'lib Majnunini, Zulayho bo'lib Yusufini kuylaydi",[6] deb yozadi T.Jalolov "O'zbek shoiralari" nomli kitobida.

Rohat tilasang ishq binosini panoh et,
Osuda erur soyayi devor muhabbat. [7]

Sevib-sevilib, ayollik baxti nima ekanligini teran anglab baxtli hayot kechirgan Nodira g'azallarida sadoqat timsoli sifatida bo'y ko'rsatdi. Uning g'azallarida ayollar ruhiyati, yorga vafodorlik, visolning baxtiyor onlari, vafodorlik kabilar teran aks etgan.

Iste'dodli shoiralardan yana biri Dilshodi Barno ismli shoiradir. Uning taqdiri ham o'z davrining ayollariniki singari ayanchli bo'lgan. Dilshodi Barno

[5] Жалолов Т. Ўзбек шоиралари. – Тошкент. Ғ.Ғ.номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1970. 110-бет.

[6] Жалолов Т. Ўзбек шоиралари. – Тошкент. Ғ.Ғ.номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1970. 88-бет.

[7] Нодира. Девон. Икки жилдлик. I жилд. – Тошкент. Ғ.Ғ.номидаги бадиий адабиёт нашриёти. 1968. 109-бет.

savodli, ilmli bo'lganligi sababli maktabdorlik qilgan. She'riyatni sevgan, Uvaysiy, Nodira, Mahzuna singari ijod sohibalarini sevib o'qigan, ularga ergashgan. "Dilshod lirikasida insonga muhabbat, Inson taqdiri uchun qayg'urish, hayotni qadrlash, adolat va haqiqatga intilish nozik his, nafosat bilan kuylanadi. Zamon qabohati, pastkashlik va yaramas urf-odatlardan nafratlanadi. Ezgulik, haqiqat borasida fikr yuritadi, uning she'rlarida zamon bilan, el-yurt bilan hamnafaslik sezilib turadi. Har bir g'azalda hayotning achchiq-chuchugini boshdan kechirgan, yechilmas muammolarga duch kelgan, ularni hal etish yo'lida harakat qilgan umidvor bir qalbning sadosi yangraydi"[8].

Shoira Anbar Otin ijodi ham o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Uning ijodida ishq mavzusi hukmronlik qilmasa ham, ishqiy g'azallar mavjud. Ishq mavzusidagi g'azallarida adab va hayoga burkangan tasvirlar mavjud:

Qay kuni bo'lg'ayki, bo'stonimga bir mehmon kelur?
Gul ochilg'on chog'ida bir bulbuli xandon kelur?[9]

Anbar Otin ishqiy mavzudagi g'azallarida noyob tasvirlarni qo'llaydi:

Sensiz bahor o'lmadi, gul ham biror bor kulmadi,
Ta'bim biron ochilmadi, san dilrabodin o'rgulay.[10]

Yuqoridagi misralarda yorsiz bahor o'z tarovatini yo'qotishi, gul, ya'ni, ko'ngil yayramasligi, kayfiyat ochilmasligi tasvirlari sodda uslubda bayon etilgan. Oshiq uchun yorning visolidan boshqa narsa kerak emas, usiz bahor ham g'arib, kunlar fayzsiz, tunlar g'arib. Insoniy tuyg'ularning samimiy misralarda aks etishi nihoyatda tabiiy chiqqan.

[8] Дилшод. Танланган асарлар. Сўз боши. М.Қодирова. – Тошкент. Ғ.Ғ.номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. 5-6-бетлар.

[9] Анбар Отин. "Шеърлар. Рисола" Тошкент,1963. ..бет.

[10] Анбар Отин. "Шеърлар. Рисола" Тошкент,1963. ..бет.

Iste'dodli shoira Nozimaxonim ham o'zbek shoiralari orasida o'zining noyob iste'dodi bilan ajralib turadi. Ko'p yozmagan bo'lsa-da, qariyb 20 taga yaqin she'ri mavjud bo'lishiga qaramay, Nozimaxonim ijodi diqqatni tortadi. 1870-yilda tavallud topgan shoira ziyoli oilada tarbiya topgan. U eski maktab bilan birgalikda xotin-qizlar uchun tashkil etilgan rus maktabida ham tahsil olgan. Birinchi jurnalist ayol bo'lgan. Shoiraning "Ming taassuf", "Afsus", "Ayo, mahkumalar" kabi musalsal g'azallari mashhurdir. Tabiiyki, Nozimaxonim ham ishq mavzusida g'azallar yaratgan. Uning g'azallarida xalqonalik mujassam:

Ko'zi suzuk nigorim,
So'zi chuchuk nigorim.
Hijroni otashingdin
Bag'rim kuyuk nigorim.[11]

Inson hayotining mazmuni ishq ekan, ishqsizlik nima va u qanday oqibatlaga olib keladi? Yana bir o'zbek shoirasi Bonu ijodining "Ishqsizlarda shikoyat" g'azalida shunday misralarni uchratamiz:

Ishqi yo'q odamni ham odam dema,
Modagonu barzagondin kam dema!
Ishqi yo'q odam misoli chorpo,[12]

Bonuning fikrlari xalqimizning "Ishqi yo'q eshak, dardi yo'q-kesak" degan maqoliga hamohang. Misralar qatidagi mazmun shoiraning fozila ekanligidan darak beradi. U ishq-muhabbatni yuksak qadrlagan. O'z muhabbati yo'lida jasorat bilan kurashadi. Otasiga sevgan odami borligini aytadi. Bu o'sha zamon muhitida shakkoklik sanalar edi. Otaga tik boqa olish qiz bola uchun uyat edi. Ko'hna

[11] Nozimaxonim.

[12] Жалолов Т. Нафосат оламида. Ғафур ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент, 173-бет.

tarixda ko‘p marotaba takrorlangan mudhish qismat Bonuni ham chetlab o‘tmadi. Otasi uni majburlab boshqa odamga turmushga beradi. Ammo Bonu qochib ketadi va o‘z sevgilisining huzuriga boradi. Ammo u tegmagan odam va o‘zining otasi uni tinch qo‘ymaydilar. Otasi uni oq qiladi, kuyovini o‘ldirtiradilar. Qo‘lida birgina bolasi bilan Bonu g‘arib bo‘lib qolib ketadi. Shu bois uning g‘azallarida ayriliq, judolik holatlari kuylanadi:

Men g‘arib, Bonu g‘arib, otim g‘arib, zotim g‘arib,
Bu g‘ariblikda yuribman qahrabodek sarg‘arib[13].

O‘sha davrda barcha xotin-qizlarning qismati bir xil edi. Oshiq-ma’shuqlik tahqirlanar, xotin-qizlarning haq-huquqlari poymol qilinar edi. Shu sababdan, ayollar lirikasida mahzunlik hukmronlik qilganligini ko‘rish mumkin.

Mumtoz adabiyotimizda Zebunniso ijodi bilan boshlangan ayollar she’riyati XIX asrga kelib takomiliga yetdi, o‘zining mazmun-mundarijasiga ega bo‘ldi. Mumtoz shoiralar yaratgan ijod namunalarida o‘zbek ayollari fenomeni, qismati, ruhiyati, dunyoqarashi, orzu-armonlari, xohish-irodalari misolida namoyon bo‘ldi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Қодирова М. Шоира Муаззамхон. – Тошкент. “ФАН”, 1992. 3-бет. (72 б)
2. Жалолов Т. Ўзбек шоиралари. – Тошкент. Ғ.Ғ.номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1970. 54-бет.
3. Уч шоира. Увайсий, Маҳзуна ва Нодира. Шеърлар. – Тошкент. ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти. 1958. 29-бет.
4. Нодира. Девон. Икки жилдлик. I жилд. – Тошкент. Ғ.Ғ.номидаги бадиий адабиёт нашриёти. 1968. 109-бет.

[13] Жалолов Т. Нафосат оламида. Ғафур ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент, 175-бет.

5. Дилшод. Танланган асарлар. Сўз боши. М.Қодирова. – Тошкент. Ғ.Ғ.номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. 5-6-бетлар.
6. Анбар Отин. "Шеърлар. Рисола" Тошкент,1963. ..бет.
7. Nozimaxonim.Devoni.
8. Nabiyeva, N. (2024). O'zbek mumtoz şoyralari ijodida ishq mavzusi talqinlari. Tamaddun nuri cürneli, 8(59), 26-28.
9. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2024). TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIIY TALQINLARI. IMRAS, 7(6), 56–60.
10. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Xonimova Maryam. (2024). BUYUK ZAMONDOSHLAR, MANGU YASHAGAY. *PEDAGOGS*, *57*(1), 132–138.
11. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, *11*(12), e2676.
12. Zafariddin, Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.